

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 yil «21» 12

571-12-170-
OB/2022-son

Bog'ot shaharchasi

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari **O.Avezov** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan BOG OT BUNYODKOR X K nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari **I.Masharipov** ikkinchi tomondan **Bog'ot tuman «O'zbekiston» maxallasida tungi yoritish chiroqlarini mukammal ta'mirlash (OBOD QISHLOQ) ishlari** bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi; -ijro hujjatlari– naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obyekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishtarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oralik davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;
-qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. obyektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab quyiladi;
-vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan harqanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
-berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
-shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning harbir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniqlash belgilangan holda shartnoma bo'yicha obyektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq dan **Bog'ot tuman «O'zbekiston» mahallasida tungi yoritish chiroqlarini mukammal ta'mirlash (OBOD QISHLOQ) ishlari** ishlari bo'yicha ko'zda tutilgan loyixa buyicha ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tanlov) natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (2022yil «17» dekabrda № 208428_-son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **120 000 000_(Bir yuz yigirma million)** so'mni tashkil etadi.
4. Ishlar qiymati o'zil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:
- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- obyektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
-barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar to'zilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;
- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish buyicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroklari o'rnatish;
- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
- mazkur shartnoma buyicha obyektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
- qurilish maydoni quriklanishini ta'minlash;
- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma to'zadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilgan kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan obyekt xarajatlari uchun umumli ishlar majburiyatini oladi.
9. Pudratchi obyektни foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi hujjatlar (ispolnitelnaya dokumentatsiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarining o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda obyektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obyekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrga dalolatnoma buyicha Pudratchiga berish;
 - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
 - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
 - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
 - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ruyxatini taqdim etish;
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.
14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi
15. obyektни Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan keyin 10 kunda foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 36 000 000 (O'ttiz olti million) so'mni tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun budjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)
19. Buyurtmachi tomonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin haqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan holda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu obyekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, obyekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xak to'lash, obyekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu obyekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot o'ynig oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-faqturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.
22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan to'ziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo cheqiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faqtura» asos bo'ladi.
23. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha obyektga mulk huquqini o'zida saklaydi. obyekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar obyektning tasodifiy yo'k qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.
25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarining barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.
26. Pudratchi texnik auditorni ishlashi uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.
27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejsi va ish jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini kupaytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda to'zata olmasa, Pudratchi ularni to'zatishtirish kechigishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni Qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi tug'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan konikmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) holATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yo'zaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni qonservatsiya qilish uchun qanday choralar qurilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa hujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qonstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatliyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqiligini;

- ishlarni qabul qilish va obyektidan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- obyektidan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalari muvofiqiligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

-ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

-Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqkiga ega.

36. Pudratchi:

-ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

-Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l quyilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

42. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga

kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penya umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

43. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.
44. Pudratchi obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddat o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lash Pudratchini ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.
45. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida obyektini qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.
46. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.
47. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u holda ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yuqotadi.
50. Pudratchi qurilish obyektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.
51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.
52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan harqanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.
54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun hujjatlariga Q.Q.S. to'g'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi konun hujjatlari ko'llaniladi.
56. Mazkur shartnoma tamonlar imzolanib Budget kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022-yilgacha amal qiladi.
57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 3 nusxada tuzildi.

XVI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

58. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
59. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
60. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasdigi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.
61. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.
62. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

BOG OT BUNYODKOR X K	«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»
Manzili: Bogot tuman Dexqonbozor maxallasi	Manzili: Bog'ot shaharchasi Tinchlik ko'cha 2 uy

Tel/faks : 90 557 65 34	Tel/faks 62 31 52 783
x/v :20208000304836722001	ShXR 100022860332047065200110008
Banknomi : ATB Mikrokreditbank Bog'ot filiali	Budjetdan mablag oluvchi STIRi 206943827
MFO : 00557	MFO 00014
STIR :301539348	OKONX: 92310
HHTUT	G'aznachilik bul nomi: Moliya Vazirligi Yagona Gazna hisob varagi
	G'aznax/v 23402000300100001010
	Bankning nomi Markaziy Bank Toshkent sh bosh boshqarmasiB
	STIR 201122919
Raxbar (imzo) I.Masharipov	Raxbar O.Avezov (imzo)



M.O.

Bog'ot tuman «O'zbekiston» maxallasida tungi yoritish chiroqlarini mukammal ta'mirlash (OBOD QISHLOQ) ishlari bo'yicha tanlovda yutib olgan narxni 2022 yil oylar davomida molyalashtirish
JADVALI

		Jami	2022 yil oylar qurilish qiymati			
			1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak

T/r	Nomi	moliyalash- tirilgan mablag' (ishlarni bajarish)	Y	f	M	a	May	I	I	a	s	O	Noyabr	Dekabr (5-Foyiz)
			a	e	a	p	iyun	lyul	vg	ent	kt	y		
1	Avans (30 % mikdorida)	36 000 000												36 000 000
2	Qurilish montaj ishlari	84 000 000												84 000 000
	JAMI	120 000 000												120 000 000

Buyrtmachi
Bog'ot tuman Obodonatqish
Boshqarmasi rahbari O.Avezov

Pudratchi
BOG'OT BUNYODKOR X K
rahbari I.Masharipov

Bog'ot tuman «O'zbekiston» maxallasida tungi yoritish chiroqlarini mukammal ta'mirlash (OBOD QISHLOQ) ishlari bo'yicha tanlovda yutib olgan narxni 2022 yil oylar davomida ishlarni bajarish

JADVALI

T/r	Nomi	Jami moliyalash- tirilgan mablag' (ishlarni bajarish)	2022 yil oylar qurilish qiymati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			Y	f	m	a	May	I	I	a	s	o	Noyabr	Dekabr
	Qurilish montaj ishlari	120 000 000												120 000 000
	JAMI	120 000 000												120 000 000

Buyrtmachi
Bog'ot tuman Obodonatqish
Boshqarmasi rahbari O.Avezov

Pudratchi
BOG'OT BUNYODKOR X K
rahbari I.Masharipov

Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

[[QR]]	Imzolovchi F.I.SH.	undefined
	Imzolangan sana	undefined
	Hujjat kodi	undefined
	Hulosa kodi	undefined

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

UQ7701004504

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Fuqarolik shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Bog'ot tumani obodonlashtirish bo'limi tomonidan 21.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog'ot tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



D.N.MATIYAZOV

21.12.2022

**Қурилиш-монтаж таваккалчиликларини ихтиёрий сугурталаш
ПОЛИСИ**

«KAFOLAT sug'urta kompaniyasi» AJ, 2022 йил 21 декабрдаги №13-11/2022/26/22-сонли Қурилиш таваккалчиликларини сугурталаш Шартномасининг шартларига мувофиқ, BOGOT BUNYODKOR Х/К мулкий манфаатларини сугурта химоясини тақдим этади.

Умумий сугурта суммаси: 104420374 (бир юз тўрт миллион тўрт юз йигирма минг уч юз етмиш тўрт) сўм.

Шу жумладан:

а) мол-мулкни сугурталаш бўйича: () сўм

б) учинчи шахслар олдида фуқаролик жавобгарлигини сугурталаш бўйича: ____ (____),
хаёти ва соғлиғига зарар етказилиши учун битта шахс учун ____.

Сугурта мукофоти: 333079(уч юз уттиз уч минг етмиш тўққиз)сум сугурталаш шартномасининг шартларига мувофиқ.

Шартсиз франшизанинг миқдори: ҳар бир сугурта ҳодисаси бўйича сугурта суммасидан ____% ни ташкил этади.

Сугурталовчининг мажбуриятлари 2022 йил 21 декабрдан бошлаб кучга киради ва 2023 йил 20 декабр соат 24-00 гача амал қилади.

Сугурталовчининг номидан:



Берилган санаси: 2022й. 21 декабр



"АСДИҚЛАЙМАН"

Богот тумани ҳокими

Ш.Қ.Яхшибасев

"3" XI 2022 йил

Богот тумани "Ўзбекистон" маҳалласида туниги ёритиш чирокларини мукаммал таъмирлаш (обод қишлоқ) ишлари


ДАСТЛАБКИ МАБИЛЛИ РЎЙХАТ

Т/Р №	Ишотлар номи ва маъноси	Таъмирланган объектлар сони	Таъмирлаш ишларининг бошланиши ва тугаланиши вақти	Пудрат шартномаси тузилиши вақтига таъмирлашнинг умумий қиймати (минг сўм)	Таъмирлашнинг 1 январь ҳолатига қолдиқ қиймати (минг сўм)	2022 йил капитал қўйималар ҳажми (минг сўм)						Ишга туширилган асосий воситалар (минг сўм)	2023 йил 1 январь ҳолатига ўтувчи объектлар бўйича қолдиқ қиймати	Лойиҳа экспертизадан ўтказилган вақти ва тартиб рақами	Таъмирлаш шартномаси тузилиши вақтига таъмирлашнинг умумий қиймати (минг сўм)	Пудрат шартномаси тузилиши вақтига таъмирлашнинг умумий қиймати (минг сўм)	Пудратчи ташкилот номи		
						Жами капитал қўйималар	КМБ (СМР)	Жаҳозлар	Жами	Буюртмачининг харажатлари шу жумладан								Ишга туширилган асосий воситалар (минг сўм)	
										лойиҳа	экспертиза								АПЗ
1	3		4 5	6	7	8=9+10+11	9	10	11=12+13+14+15	12	13	14	15	16=5	17	18	19	20	
	Богот тумани																		
1	Богот тумани "Ўзбекистон" маҳалласида туниги ёритиш чирокларини мукаммал таъмирлаш (обод қишлоқ) ишлари	1	2022	0,0		9200,0			9200,0	7310,0	690,0	1200,0							Таъмирлаш
	Буюртмачи харажатлари					9200,0	0,0	0,0	9200,0	7310,0	690,0	1200,0	0,0	0,0	0,0				
	Тақсимланмаган лимит					141300,0													
	Жами:	1		0,0	0,0	150500,0													Таъмирлаш



Богот тумани ҳокими
Ўрибсари
М.Калаидаров
"3" XI 2022 йил

"КЕЛИШИЛДИ"
Богот тумани Молия бўлими муdiri
Ж.Шоназаров
"3" XI 2022 йил



Богот тумани Обод қишлоқ бўлими
О.Авезов
2022 йил



"ТАСДИҚЛАЙМАН"

Богот тумани ҳокими

Ш.Қ.Яхшибаев

"17" XII 2022 йил

Богот туман "Ўзбекистон" маҳалласида тунги ёритиш чирокларини мукамал таъмирлаш (обод кишлок) ишлари
ЯКУНИЙ МАНЗИЛИЙ РЎЙХАТИ

Т/Р №	Ишотлар номи ва манзили	Таъмирланган объектлар сони	Таъмирлаш ишларининг бошланиши ва тугаллиниши вақти	Пудрат шартномаси тузилиши вақти таъмирлашни умуий қиймати	Таъмирлашнинг 1 январь ҳолатига қолдиқ қиймати юнбағи (минг сўм)	2022 йил капитал қўйималар ҳажми (минг сўм)						Ишга туширилган асосий воситалар (минг сўм)	2023 йил 1 январь ҳолатига қолдиқ объектлар бўйича қолдиқ	Лойиҳа экспертизадан ўтказилган вақти ва тартиб рақами	Таъмирлаш саволар ўтказилган вақти, ташлов натижалари тасдиқлаган бўлиб тартиб	Пудратчи ташкилот номи			
						Жами капитал қўйималар	КМН (СМР)	Жахозлар	Шу жумладан								ГАС И		
									Жами	лойиҳа	экспертиса							АПЗ	
1	Ишотлар номи ва манзили	4	5	6	7	8-9+10+1	9	10	11=12+13+	12	13	14	15	16=5	17	18	19	20	
	Богот тумани																		
1	Богот туман "Ўзбекистон" маҳалласида тунги ёритиш чирокларини мукамал таъмирлаш (обод кишлок) ишлари	1	2022	120000,0		129200,0	120000,0	9200,0	9200,0	7310,0	690,0	1200,0				№ 80430 05.12.2022й	№ 208428 17.12.2022 й	BOG'OT BUNYODKOR XK	
	Буюртмачи харажатлари					129200,0	120000,0	0,0	9200,0	7310,0	690,0	1200,0	0,0	0,0	0,0				
	Тақсимланмаган лимит					21300,0													

"КЕЛИШИЛДИ"

Богот тумани Молия

Бўлими мудири

Ж.Шоназаров

"17" XII 2022 йил

Богот тумани ҳокими

Ўринбосари

М.Қалаидаров

"17" XII 2022 йил

Богот тумани Ободондаштириш

бошқармаси бошлиғи

О.Авезов

2022 йил





"УТВЕРЖДАЮ"
 заместителя хокима Багатского района
 М.Қаландаров
 "17" / 11 / 2022 г

ТИТУЛЬНЫЙ СПИСОК СТРОЙКИ

Раздел 1. Основные данные по стройке

1	Наименование и местонахождение стройки	Богот туман "Ўзбекистон" махалласида тунги ёритиш чироқларини мукаммал таъмирлаш (обод қишлоқ) ишлари	
2	Отрасли		
3	Инвестор		
4	Заказчик	Богот туман Ободонлаштириш бошқармаси	
5	Разработчики		
	ПСД	"KARAL KONSTRUCTOR SERVIS" ЧП	
	Экспертизы		
6	Генеральный подрядчик	BOG'OT BUNYODKOR XK	
7	Источник финансирования	Местный бюджет	
8	Срок начало и окончание строительства	2022 г декабр	
9	Основные показатели стройки	Всего	Остаток на 01.01.2022г (в тыс.сум)
	Мощность	Обект	Обект
	Основные фонды	129200,0	129200,0
	Капитальные вложение	129200,0	129200,0
	Строительно-монтажные работы	120000,0	120000,0
	Оборудование и инвентарь		
	Прочие работы и услуги	9200,0	9200,0
	Содержание службы заказчика		
	Прогноз на 2020 год в соответствии с согласованием с МФ адресным списком	Всего	в договорных ценах (в тыс.сум)
	Мощность	Обект	Обект
	Основные фонды	129200,0	129200,0
	Капитальные вложение	129200,0	129200,0
	Строительно-монтажные работы	120000,0	120000,0
	Оборудование и инвентарь		
	Прочие работы и услуги	9200,0	9200,0
	Содержание службы заказчика		

Раздел II. Поквартальная разбивка прогноза на 2022 г (в тек.ценах, тыс.сум)

№	Наименование	Всего на год	в том числе по кварталом			
			I	II	III	IV
	Ввод мощности	Обект	Обект	Обект	Обект	Обект
	Основные фонды	129200,0				129200,0
	Капитальные вложение	129200,0				129200,0
	Строительно-монтажные работы	120000,0				120000,0
	Оборудование и инвентарь					
	Прочие работы и услуги	9200,0				9200,0
	Содержание службы заказчика					



(Handwritten signature in blue ink)

